

## Qashqadaryo Vohasi Qadim Suv Manbalari

*O‘roqova Dilnoza Ilhom qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasi hududining qadimgi davrlardagi suv manbalari va yerlarni sug‘orishda foydalanilgan suv zahiralari tahlil qilinadi. Qashqadaryo vohasi tabiiy sharoitlari, issiq iqlimi va unumdon yerlarining mavjudligi, shuningdek, suvsiz dehqonchilikning rivojlanishi haqidagi tarixiy faktlar ko‘rib chiqiladi. Maqola orqali kishi ijtimoiy hayotida suvning ahamiyati, tabiiy suv manbalarining insoniyat taraqqiyotidagi roli va tarixiy manbalar asosida o‘z tasdiqlashini ko‘rsatish maqsad qilinadi. Qadimiy sug‘orish tizimlari, irrigatsiya inshootlari va ularning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarganligi, shuningdek, suv tanqisligi va shunday muammolarni hal qilish yo‘llari ham tahlil etiladi. Qashqadaryo vohasi, uning qadimiy madaniyati va zamonaviy suv resurslari masalalariga oid dalillar keltiriladi, bu orqali vohaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi suv manbalarining o‘rni ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Qarshi cho‘li, Kalif kanali, Qashqadaryo daryosi, Eskianhor, sovxozlashtirish, Tallimardon.

Qashqadaryo viloyatida mavjud tabiiy sharoit, issiq iqlim, unumdon yer va uni sug‘orish uchun suv manbalarining kam bo‘lsa-da, borligi inson paydo bo‘lishining dastlabki davridayoq tabiat in’omlaridan foydalanishga imkon yaratgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Qashqadaryo vohasida sug‘oriladigan dehqonchilik bilan eramizdan avvalgi asrning boshlaridan shug‘ullanilgan.

Ma’lumki, Qashqadaryoning quyi qismi asosan pasttekisliklardan iborat bo‘lib, uzunligi 300 km.dan ortiq daryo va uning irmoqlari bo‘ylab bepoyon cho‘lda dehqonchilik va chorvachilik uchun suv chiqadigan joylarda aholi yashash maskanlari, qishloqlar paydo bo‘lgan.

O‘tmishda sug‘orilib dehqonchilik qilingan yerlarning umumiylar manzarasiga e’tibor berilsa, bu yerlarda inson qo‘li bilan yaratilgan katga-kichik manzillar o‘rnidagi xarobalar, tepaliklar, vayron bo‘lib ketgan qo‘rg‘onlar bizga hamon uzoq o‘tmishdan xabar berib turmoqda.

Tepaliklarning joylashgan o‘rniga qarab, Qashqadaryo suvining qaysi manzillargacha yetib borganligiga baho berish mumkin. Bunday hududlar Qashqadaryoning sharqiy qismida joylashgan Xonobodtepadan boshlanib, undan janubi-g‘arb tomonda joylashgan Ko‘hna Fazli xarobalariga qadar, shimoliy qismidagi Oqtepadan janubdagisi Bobokentepa, Qoratepagacha bo‘lgan hududlarni qamrab olgan.

Qashqadaryoning quyi qismidagi qadimiy hayot izlari akademiklar Yahyo G‘ulomov, Ahmadali Asqarov va boshqa qadimshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ma’lumotlarga qaraganda, bir zamonlar Zarafshon daryosining suvi Buxoro viloyatinig Qumsulton pastgekisligida Qashqadaryo suvi bilan qo‘shilib, yerlarni obod qilgan va ortiqcha suvlar Amudaryoga quyilgan [1].

Bazda (Ko‘hna Fazli xarobalar), Nasaf (Qarshi)dan 6 farsax shimolda, Buxoro yo‘lida joylashgan mustahkam qal’a bo‘lgan. Istahriy Bazdada jome masjidi bo‘lganligi, shaharni daryo o‘zani kesib o‘tgani, yilning ma’lum vaqqlarida katta suv oqib o‘tgani to‘g‘risida xabar beradi.

Shularga asoslanib aytish mumkinki, Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish boshlangunga qadar mavjud bo‘lgan Qamashidaryo, Qashqadaryoning chap qirg‘oqirmog‘i Qarshi-Samarqand temir yo‘l ko‘prigidan 4 km. pastroqdan boshlanib, Jumabozor, Galaxo‘ja, Qora qozoq, Mirzabek, Izma va Qamashi qishloqlaridan o‘tib, Ko‘hna Fazli (Bazda)gacha bo‘lgan daryo atrofidagi yerlarni, qishloq va qo‘rg‘onlarni suv bilan

<sup>1</sup> Qarshi davlat universiteti III kurs talabasi



ta'minlagan. Ortiqcha suvlar esa XX asrning 80-yillari Qarshi cho'lida tashkil qilingan G'ofur G'ulom nomli qorako'lchilik davlat xo'jaligining chegarasida joylashgan Achchig'li pastliklari orqali Turkmaniston davlatining Xo'jambos tumani cho'llaridan o'tib, Amudaryoga tushib ketgan.

Hozirgi vaqida Achchig'li pastligi Qarshi cho'lida o'zlashtirilgan yerlarning bir qismidagi zax suvlarni to'plashga mo'ljallangan suv omboriga aylantirilgan[2].

Kasbi tumanining Uyrot qishlog'idan boshlanadigan Qashqadaryoning yana bir chap qirg'oq irmog'i Jar nomi bilan atalgan. Bu irmoq suvi Baydoqchi, Komilon, Xo'jahayron, Qurama, Ayzabod, Jeynov va Chandir qishloqlarini ta'minlab, ortiqchasi Qarshi cho'li asosiy Janubiy zovurining tabiiy o'zani orqali Turkmaniston davlati hududidagi Sultontog' pastliklari orqali Amudaryoga borib quyilgan[3].

Qadimda Qashqadaryoning asosiy o'zani Koson tog'inining yonbag'irlaridan o'tib, Uyrot, Halima, Oqjangal, Xitoy, Xo'jamuborak, Sariq, Muborak, Ko'hna shahar, Qulman va boshqa qishloqlarni suv bilan ta'minlagan. Oqim bo'y lab, keyinchalik Buxoro viloyatining Devxona va Xadicha pastliklari orqali Qumsulton pastligida Zarafshon daryosining o'zani bilan qo'shilib oqqan.

Qashqadaryo va uning irmoqlari Qamashidaryo, Jar suvlarning Amudaryoga qo'shilishi, Qashqadaryo Amudaryoning irmoqlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi.

Ajdoddarimiz Qashqadaryo vohasida sug'orish ishlari bilan eramizdan avvalgi V asrlarda shug'ullana boshlagan. Bu davrda arpa, bug'doy, suli kabi ekinlar ekilib, dehqonchilik ishlari bajarilgan. Daryolarning bahor paytlaridagi toshqinlari tekis yerlarni bosib, ekin-tikinlarga ziyon yetkazgan. Astasekin suv bosadigan yerlarda kichik-kichik dambalar qurish hisobiga tabiiy ofatlarning oldi olingan va ekin ekiladigan maydonlar kengaytirilib borilgan. Vaqt o'tishi bilan daryolardan ariqlar chiqarilib, daryordan uncha uzoq bo'lmasalarda dehqonchilik ishlari rivojlantirilgan[4]. Eramizdan avvalgi birinchi ming yilliklarga kelib, daryo o'zanidan ancha uzoqlarga cho'zilgan ariqlar chiqarilib, sug'oriladigan maydonlar yanada kengaytirilgan. Ayiqsa, hayotda metall materiallardan foydalanishning yuzaga kelishi bilan kanallarni yanada uzoq masofalarga cho'zish, sug'oriladigan yerlarni kengaytirish imkoniy yaratilgan, hatto baliqchilik rivojlana boshlagan[5].

Shunday qilib, daryolardan katta-kichik kanallar orqali suv olish va undan sug'orish ishlarida foydalanib, dehqonchilik bilan shug'ullanish jarayonida ilk bor irrigatsiya ishlari amalga oshirilgan. Bu xil tadbirlar sabab tugayotgan birinchi ming yillikning boshlaridan boshlab, sug'oriladigan yerlarda, daryolar yoqlarida odamlar yashaydigan manzillar (qishloqlar, shaharchalar) paydo bo'la boshlagan.

Uzoq o'tmishda qurg'oqchilik yillarning ustma-ust kelishi va daryolarning yuqori qismida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, davlatlar o'rtasida olib borilgan o'zaro jangu jadallar natijasida Qashqadaryoning pastki qismida joylashgan aholining yashash joylariga suv yetib kelmasligi shubhasiz mavjud bo'lgan. Oqibatda qishloq va shaharchalarda asta-sekin hayotning barham topib va ular o'rnida tepaliklar paydo bo'lib qolgan.

Shunday qilib, Qashqadaryo vohasi aholisi asrlar davomida sug'orish kanallari, irrigatsiya inshootlari qurib foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolgan va shu bilan birga suv tanqisligiga qarshi toliqmay kurashgan. Mehnatkash xalqning aql-zakovati, katta kuchi bilan barpo qilingan ariq va anhorlar suvi vohaga hayot berib, farovonlik baxsh etib kelgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR!

1. P. Ravshanov "Qashqadaryo tarixi" 88-6.
2. Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob 1917-1939-yillar. – T.: O'zbekiston, 2019.
3. Jabborova I. Eskianhor kanali o'tmishiga bir nazar // Ijtimoiy-gumanitar ta'lim va yoshlarni ilmiy tadqiqotda jalb etish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2020.
4. Jalolov E. Yashnayotgan voha//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 1983.



5. Ochilov N. O'zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya ishlari (1946-1964). – Toshkent: "Fan", 1991.
6. P. Ravshanov. "Qashqadaryo tarixi."
7. Jabborova I. Eskianhor kanali o'tmishiga bir nazar // Ijtimoiy-gumanitar ta'lif va yoshlarni ilmiy tadqiqotda jalb etish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi, 2020.
8. Jalolov E. Yashnayotgan voha // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 1983.

